QASHQADARYO VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARI VA ULARDA XALQ OG‘ZAKI IJOD MOTIVLARINIG AKS ETISHI.

Abduraxmanova Zumrad Normurod qizi
Chirchiq davlat pedogogika universiteti
2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Maqolada ziyoratgoh nomlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq xalq og‘zaki iodi namulari hamda ularning xalqning turmush tarzi, ijtimoiy holatini aks ettirishdagi ahamiyati xususida muhim fikrlarga e’tibor qaratildi. Nomlardagi lingvokultrologik belgilar xalqning o‘tmish va hozirgi kundagi dunyoqarashidagi mushtaraklik o‘zaro bog‘lab tahlil qilindi.

Kalit so‘z. Ziyoratgoh, lingvokultrologik birliklar, xalq motivlari, o‘tmish va bugun.

Abstract. The article focuses on important ideas about the origin of the names of shrines and their significance in reflecting the lifestyle and social status of the people. The linguistic and cultural features of the names were analyzed in relation to the commonality of the people's past and present worldview.

Keywords: Shrine, linguocultural units, folk motifs, past and present

Аннотация. В статье рассматриваются важные идеи о происхождении названий святынь и их значении в отражении образа жизни и социального статуса населения. Лингвистические и культурные особенности названий анализируются в контексте общности мировоззрения людей в прошлом и настоящем.

Ключевые слова. святилище, лингвокультурные единицы, народные мотивы, прошлое и настоящее.

Zamonaviy tilshunoslikda tildagi har qanday birlikni lingvokultrologik jihatdan tahlil qilish muhim ahamiyatga ega. Chunki bu orqali shu birlikning aniq lisoniy tahliliga e’tibor qaratiladi. Xalq madaniyati bilan bog‘lab tadqiq qilinganda uning bir nechta xususiyati ochib beriladi. Jumladan, nomlarni o‘rganishda ham xalq og‘zaki ijodi orqali yetib kelgan motivlar orqali tahlil qilish, nom bilan bog‘liq aniq xulosalar chiqarishda ahamiyatlidir. Tilshunosligimizda ziyoratgoh nomlari va ularning kelib chiqishi bilan bog‘liq jarayonlarni bir qancha jarayonlar orqali o‘rganish mumkin. Shu jihatdano‘zbek tili toponimik tizimi, ayniqsa diniy-ma’naviy ahamiyat kasb etuvchi ziyoratgoh nomlari, xalq tafakkuri va madaniyatining yorqin namunasidir.

Ziyoratgoh toponimlari nafaqat geografikobyektni anglatuvchi nomlar, balki xalqning e’tiqodi, qadimiy tasavvurlari va ijtimoiy ongining tildagi aksidir. Shu

sababdan ularni lingvokulturologik jihatdan tadqiq etish —tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur maqolada ziyoratgoh nomlarining o‘zbek tilidagi o‘rni, ularning lingvistik tuzilishi va madaniy mazmuni, shuningdek, diniy leksika bilan o‘zaro aloqasi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi — o‘zbek toponimik tizimidagi ziyoratgoh nomlari orqali xalq madaniyati, e’tiqodi va tilning o‘zaro munosabatini tahlil qilishdir.

Ziyoratgoh atamasi arabcha ziyara — “borish, yo‘qlash, ziyorat qilish” so‘zidan kelib chiqqan. O‘zbek xalqining tarixiy va diniy hayotida ziyoratgohlar alohida muqaddas maskan sifatida e’tirof etilgan. Q.T.To‘rayevning ta’kidlashicha, toponimlar xalq tafakkurning “muzlagan tarixi” bo‘lib, ular orqali millatning e’tiqodi, qadriyatlari va madaniy qatlami o‘rganiladi.[29] O‘zbek toponimik tizimida ziyoratgoh nomlari alohida qatlamni tashkil etadi. Bunday nomlar ko‘pincha muqaddas shaxslar, payg‘ambarlar, avliyolar, tarixiy voqealar va xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq bo‘lib, ularning semantik yuklamasi keng va rang-barangdir. Ziyoratgohlar nafaqat diniy amaliyot obyekti, balki milliy madaniyat, axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi muhim makon hisoblanadi. Shu bois ziyoratgoh toponimlarini lingvokulturologik jihatdan o‘rganish til va madaniyat o‘zaro munosabatlarini yoritishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘zbek toponimikasida ziyoratgohlar bilan bog‘liq nomlar keng tarqalgan. Leksik tarkib nuqtai nazaridan “bibi”, “ota”, “hazrat”, “imom” kabi diniy leksik elementlar ziyoratgoh nomlarining asosiy semantik yadrosini tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyati yurtimizning eng muqaddas ziyoratgohlarga boy zamini hisoblanadi. Viloyat hududida biri-birini takrorlamaydigan ziyorat obyektlari jamlangan. Ularning lingvokultrologik xususiyatlari ham viloyatda istiqomat qiluvchi kishilar e’tiqodi, turmush-tarzini aks ettirishi bilan o‘ziga xoslikni tashkil qiladi. Ziyoratlarni tadqiq qilish chog‘ida shu narsaga amin bo‘lindki, ziyoratgohlarning ko‘plari xalq o‘zi qadrlagan, qandaydir xususiyati bilan xalqning e’tiborini qozongan shaxslarni doimo ulug‘lagan va ularning ruhidan o‘zlariga madad so‘ragan. Ular qabrlari atrofini ziyorat qilib ulug‘lar ruhidan kuch-quvvat olishiga ishongan. Xususan, Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi ziyoratgohlarni tadqiq qilish chog‘ida shu yerlik aholi bilan suhbatda ayni ziyoratgohlar nomlanishida turli-tuman xalq rivoyat va afsonalarining mavjudligi buning yaqqol dalilidir.

Qarshi tumanida aholi tomonida e’zozlanadidan bir qancha ziyoratgohlar mavjud. Jumladan, Langar ota, Mushkul ota, Ko‘ktosh ota, O‘g‘lonjon ota kabilar.

[29] 1 To ‘rayev Q.T, Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishni takomillashtirishning geografik asoslari. 2023.

Ularning har birining paydo bo‘lishida xalq tomonidan yaratilgan afsonalar yotadi. Hozir ular bilan bog‘liq qarashlarni tahlilga tortamiz.

Langar ota Qashqadaryo vohasida Langarota nomi bilan ataladigan ziyoratgohlari asosan, Qamashi va Chiroqchi tumanlarida uchraydi. Qo‘shni Tojikiston Respublikasida ham Langar ota nomli ziyoratgoh mavjud. Viloyatning Qamashi tumani Langar qishlog‘ida Langar ota masjidi va Shayx Abulhasan maqbarasi mavjud bo‘lib, dengiz sathidan 1000 metr balandlikda barpo etilgan. Ma’lumki, langar so‘zi “muvozanat yoki “o‘rtalik” degan ma’noni anglatadi. “langar” atamasi ko‘proq muvozanatni saqlash va harakatni bir maromda tutib turish ma’nosini anglatishi izohlanadi. Ba’zi rivoyatlarda islom dinida so‘fiylar va darveshlar langar tashlash orqali joylashadigan yerlarini aniqlagani, shuningdek, ushbu atama mo‘g‘ulcha “lango‘r” – qabr, ya’ni eng katta avliyoning qabri yoki boshqacha ta’rifda musofirxona, xayr-ehson tarqatiladigan joy, aziz-avliyolar langar tashlagan makon kabi ma’nolarni anglatadi.[30] Demak, bu nom izohini turlicha talqin qilish mumkin . Biz shular orasidan eng ma’qulini Shayx Muhammad Sodiq nomi bilan bog‘laymiz. Bu kishining asl ismlari Shayx Muhammad Sodiq bo‘lgan. Langar ota o‘zi yashab o‘tgan vaqtidagi muqaddas Qur’oni Karimni eng go ‘zal tilovat qiladigan Qori bo‘lgan. Ushbu ziyoratgohga tashrif buyurgan inson ajoyib bir ruhiy sokinlik sezadi. Langarota maqbarasi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanidagi Langar ota ziyoratgohida joylashgan. Ziyoratgoh tarkibida, Langarota masjidi ham mavjud. Maqbara masjiddan bir soy naridagi tepalik ustida bunyod etilgan. Maqbaraning atrofi qabriston bo‘lib, tobutxonadan 100 metr uzoqlikda xilxona joylashgan. Mazkur yodgorlik Langarota masjidi qurilganidan 100 yil o‘tib bunyod etilgan. Maqbara qurilishidagi me’morchilik uslubi Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasiniki bilan juda o‘xshash. Langar ota maqbarasi pishiq g‘ishtdanqurilgan bo‘lib, eshik va deraza darchalari jimjimador naqshlar bilan bezaklangan. Maqbarada jami 5 ta qabr mavjud, ularning 3 tasiga qabrtoshi o‘rnatilgan. ―Langar‖ atamasi mozor, qabriston yoki ziyoratgoh, shu bilan birgalikda karvonsaroy, karvonlar to‘xtash joyi, bekati degan ma’nolarni anglatadi. Maqbara o‘z davrida ayni shunday hududda joylashgan. Maqbarada Abulhasan Ishqiy va uning yaqinlari dafn etilganligi sababli ham bu inshoot Shayx Abulhasan maqbarasi nomi bilan ham mashhur.Ayrim rivoyatlarga ko‘ra, «Langar ota― atamasi shayx Abulhasanning kunyasi hisoblangan. Qadimshunos olim Abdusobir Rayimqulovning tadqiqotlariga ko‘ra, Langar ota maqbarasiga tasavvuf ta’limotining ishqiya tariqati bilan shug‘ullanuvchi shayxlar Abulhasan Ishqiy, o‘g‘li shayxzoda Muhammad Sodiq va nabirasi Abulhasan Oxund dafn etilgan. To‘rtinchi qabrda hech qanday qabrtoshi mavjud

[30] https://interoncof.com/index.php/nether/article/view/2269

bo‘lmaganligi uchun uning kimga tegishli ekanligi aniq emas.[31] Yuqoridagi izohlardan ko‘rinib turibdiki, Langarota nomi shayx Abulhasanning kunyasi bilan bog‘liq degan qarash eng izoh desak xato qilmaymiz.

O‘g‘lonjon ota maqbarasi — Qamashi shahridagi me’moriy yodgorlik (18—XIX asrlar). Maqbara to‘rtburchak tarhli, peshtoqgumbazli; pishiq g‘ishtdan qurilgan. Bosh tarzidagi peshtog‘iga yassi ravoqlar, burchaklariga guldastalar ishlangan. Sag‘ana joylashgan xonaning ichki devorlari ravoqli.[32] Ziyorat chog‘ida shu yerning imomi Navro‘z aka bilan suhbat chog‘ida shu narsa aniqlandiki, O‘g‘lonjonota nomi asli Hazrat Alining o‘g‘li Hazrat Jafar nomi bilan bog‘liqligi talqin etildi. Ularga safar chog‘ida ayni shu hududda ularga dushman hujum qilib, qilib, o‘q tegadi. Ular endi navqiron yoshida bandalikni bajo qilgani uchun ham o‘g‘lon yoshida ketdi, yosh,navqiron o‘tdi deb shu nom berilgan. Ular xotirasiga maqbara bunyod etilib, ko‘plab aholi shu yerda quturish kasaliga davo istab, kelishi aytildi. Buning sababini esa quyidagicha izohlashdi. Daydi,quturgan o‘q uni nobud etdi, kimki bu yerni ziyorat etsa u shu kasallik bilan kasallangan bo‘lsa darddan forig‘ bo‘lsin deb aytgan ekanlar.

Mushkul ota deb talqin etiluvchi ziyoratgoh nomi bilan ma’lum bo‘lgan bu maskan 18-asrga oid hisoblanib, uning asli nomi xalq orasida o‘zining karomatlari bilan mashhur bo‘lgan Musallam ona nomi bilan bog‘liqligi ma’lum bo‘ldi. Mussallam ona ba’zi rivoyatlarga ko‘ra Bahavuddin Naqshbandning ammasi bo‘lib, u kishi ko‘plab kishilarni og‘irini yengil qilganliklari uchun ham aynan shu nom berildi.Nom shundan buyon shunday atalmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, Har bir ziyoratgoh nomlanishida o‘ziga xos rivoyat va haqiqatlar bor. Ularni o‘rganish orqali milliy qadriyatlarimizni kelib chiqishi haqida fikrlarimizni yanada kengaytiramiz va ular nomi bilan bog‘liq haqiqatlarimizni oydinlashtiramiz. Bu esa qadriyatlarga sodiqlik ruhini shakllantiradi. Bundan tashqari xalqimizning qadimgi madaniyati va e’tiqodini o‘rganish orqali, ayniqsa ularning til xususiyatini ochib berish orqali nomga xos bo‘lgan asosiy va haqiqatga yaqin bo‘lgan jihatlarini aniqlash mumkin. Biz yuqoridagi nomlar izohini o‘rganishda aynan shu usulni tanlasak xato bo‘lmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.To‘rayev Q.T., Qurbonov Sh.B. O‘zbekistonda diniy turizmni rivojlantirish va hududiy tashkil etilishni takomillashtirishning geografik asoslari, 2023
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent: O‘zME, 2008.

[31] Yangi O‘zbekistonda milliy turizm istiqbollari” mavzusidagirespublika ilmiy-amaliy konferensiyasi,12.06.2024-y, 150b

[32] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBg%CA%BBlonjon_ota_maqbarasi

3. Islom ensiklopediyasi. Toshkent: O‘zME, 2004.
4. [1] https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBg%CA%BBlonjon_ota_maqbarasi
5. https://interoncof.com/index.php/nether/article/view/2269